

BADIIY ADABIYOT YORDAMIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALAR NUQTINI O‘SISH SAMARADORLIGI

Mamadiyeva Zilola Shavkat qizi
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
zilola9797@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalarda badiiy adabiyot orqali nutqni o‘stirish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning o‘ziga xos metodik imkoniyatlari, badiiy adabiyotlar orqali nutqni o‘stirish vosita, usul va metodlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Bola, rivojlanish, badiiy adabiyot, kommunikativlik, nutq o‘stirish metodlari, nutq vositalari.*

ABSTRACT

This article is devoted to the development of speech in children of preschool age through fiction. The article focuses on the unique methodological possibilities of developing the speech of older children of preschool age, the means, methods and methods of developing speech through fiction.

Keywords: *Child, development, fiction, communicativeness, speech development methods, speech tools.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ertangi kun egalari bo‘lmish yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda.

“Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e‘tiborni talab qiladi va bu mamlakatimizning istiqboli bo‘lgan yosh avlodlarimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma‘naviy fazilatlar egasi bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog‘liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak”⁵ –degan edi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Binobarin, tili ravon, nutqi toza, mustaqil fikr yuritadigan avlodni tarbiyalash davrimizning dolzarb muammolaridandir.

Til va nutq inson aqliy rivojlanishining turli yo‘nalishlari - fikrlash, tasavvur, xotira, hissiyotlar bilan bog‘langan. Bola og‘zaki tilni faol o‘zlashtirish davrida ya‘ni

⁵ <https://uwed.uz/uz/pages/president-report>

maktabgacha yosh davrida uning nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asos yaratadi.

Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi o'z dolzarbligiga egadir.

Maktabgacha yoshda bolalar nutqini rivojlantirishni badiiy adabiyotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Badiiy adabiyotlar bola nutqni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta guruh bolalari bilan nutq o'stirish ishlari turli xil shakllarda olib boriladi. Badiiy adabiyotlardan foydalangan holda olib boriladigan nutq o'stirish jarayonlarini ham turli xil shakllarda tashkil etish mumkin. Mshag'ulotlarning turli shakllarda tashkil etilishi pedagogik jarayon samaradorligiga erishishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda badiiy adabiyot orqali nutq o'stirish shakllari:

- mashg'ulotlar;
- sayrlar;
- bayram ertaliklari.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda badiiy adabiyot orqali nutqni o'stirishning mashg'ulot shakliga nutq o'stirish va badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish mashg'ulotlari misol bo'ladi. Bunda davlat dasturi asosida rejalashtirilgan oy va hafta mavzularidan kelib chiqib tanlangan badiiy asarlar, ertak, hikoya va she'rlar mashg'ulotlar davomida o'rgatiladi va ular orqali bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga asoslangan holda nutqini rovojlantirish ishlari olib boriladi.

Maqsadli sayr va sayohatlarda badiiy adabiyotlar foydalanish orqali nutqni rivojlantirish ishlarini olib borish mumkin. Bunda, aholi yashaydigan uylar, magazin-do'kon, mehnat qahramoniga o'rnatilgan yodgorlik (sharoitga qarab boshqa yodgorliklar), xiyobonlarga yoki maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zida oshxonaga, tashkilot hovlisiga, boshqa guruh xonalari va hokazolarga sayohat uyishtirish mumkin. Sayrlar davomida sayrga borilgan joy, kuzatilayotgan predmet va shaxslarga taalluqli she'r, ertak va hikoyalar bolalarga o'rgatiladi. Bundan tashqari sayrlar davomida bolalarga notanish bo'lgan so'zlar ham o'rgatib borilib ularning lug'at boyligi oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda badiiy adabiyot orqali nutq o'stirish usullari:

- bolalarga she'rni yod oldirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotida kitob burchagi tashkil etish;
- mashg'ulotdan tashqari vaqtda badiiy adabiyotdan foydalanish;
- badiiy asarlarni sahnalashtirish;

Bolalarga she'rni yod oldirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga she'r yodlatishning asosiy maqsadi va ahamiyati ularda she'riyatga bo'lgan muhabbatni, badiiy didni tarbiyalash, poeziyaning eng yaxshi namunalarini idrok etishni shakllantirishdir. Shuningdek, bolalarga estetik tarbiya berishda ham she'r yod oldirishning ahamiyati benihoya kattadir. Bolalarga yod oldirilishi lozim bo'lgan she'rlarning ro'yxati berilgan. Bu she'rlar bolalar hayotidan olingan bo'lib ular quvnoq o'yinlar, o'yinchoqlar, uy hayvonlari, tabiat to'g'risidagi she'rlardir.

She'r yod oldirishda tarbiyachi oldida bir qancha vazifalar turadi:

1. O'qilgan she'rni hamma bolalar esda saqlab qolishlariga erishish.
2. Bolalarda she'rga (poeziyaga) nisbatan qiziqish uyg'otish va mustahkamlash.
3. She'r mazmunini va undagi ayrim qiyin so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam berish.
4. Tinglovchilar oldida she'rni ifodali aytib berishga o'rgatish. Bu vazifalarning barchasi bir vaqtda amalga oshiriladi.

Yodlatish uchun she'r tanlashda dastur vazifalariga, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, esda saqlash qobiliyatlariga e'tibor berish kerak. Yodlatish uchun she'r tanlashda shuni hisobga olish kerakki, she'r hajm jihatidan uncha katta bo'lmasligi, kichik guruhlarda 1 banddan oshmasligi, o'rta guruhda 2 band, katta guruhlarda 3-4 banddan oshmasligi kerak. Bolalar bir oy ichida kuni bilan 1-2 ta she'rni yod oladilar. Ba'zilarini mashg'ulotdan tashqari vaqtda (sayrda, o'yin jarayonida) beixtiyor eslab qoladilar. Tarbiyachi bolalar bilan she'r yod oldirish mashg'ulotini tashkil etishdan avval guruhdagi bolalarning qaysisi tez, qaysi birlari sekin, qaysilari puxta, qaysilari yod olishlarini aniqlab olishi kerak.

Katta guruhda mavzusi jihatdan turli xildagi: Ona -Vatan, tabiat, bayramlar, kishilarning mehnatlari, bolalar hayoti, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi she'rlar yod oldiriladi. Bu guruhda tarbiyachining vazifasi faqat bolalarning she'rni yod olishlariga yordam berishgina emas, balki uni emotsional tarzda idrok qilishlariga erishish hamdir. Bolalarni she'rni ifodali aytib berishga o'rgatishga alohida ahamiyat berish lozim. Tarbiyachi suhbat vaqtida bolalarga bayramlar haqidagi she'rlarni sevinch ifodasi bilan, kuz haqidagi she'rlarni esa biroz g'amgin ohangda aytilish sabablarini tushuntiradi. She'rni nutq o'stirishga doir bir necha mashg'ulotlarning ikkinchi qismida, ertalabki va kechki soatlarda takrorlash rejalashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida kitob burchagi tashkil etish. Bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini va undan foydalanishning eng oddiy malakalarini (kitobdagi rasmlarni ko'rib chiqish) tarbiyalash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotining har bir guruhida kitob burchagi tashkil etiladi. Kitob burchagi uchun yorug' va qulay joy tanlanadi. Shuning uchun kitob burchagiga stol lampasini qo'ygan ma'qul. Katta guruhlarda esa kitob javonida tashkil etgan ma'qul. Chunki bu guruhda kitob boshqa guruhlarga nisbatan ancha ko'p bo'ladi. Kitob burchagi o'zining tashqi ko'rinishi bilan bolalarni o'ziga jalb qilishi kerak. Kitob burchagiga bolalar hayotidan, ertaklardan olingan rasmlardan osib qo'yish mumkin. Katta va maktabga tayyorlov guruhlari esa shoir va yozuvchilarning, masalan, Zulfiya, Q.Muhammadiy, E.Vohidov, P.Mo'min, A.Oripov va h.k.larning portretlarini osib qo'yish mumkin. Bu adiblar bilan ularning yozgan asarlari haqida ularning kitoblarini bolalarga o'qib berayotgan vaqtda tanishtirib boradi. Har bir guruh uchun dastur asosida kitoblar tanlanadi. Qo'shimcha adabiyotlar ham tarbiyachi tomonidan tanlanib, kitob javonida saqlanadi.

Hamma guruhlardagi kitob burchaklarida har qaysisida 8-10 ta rasm yoki fotosuratlar solingan bir necha papka hamda bolalar chizgan rasmlar solingan bir necha papka bo'lishi kerak. Papkalarga undagi materiallarga tegishli illustratsiyalar yoki manzaralar tasviri solib qo'yilgan bo'ladi. Bolalar rasmlarni ko'zdan kechirib bo'lganlaridan keyin ularni kerakli papkalarga joylashtiradilar.

Mashg'ulotdan tashqari vaqtda badiiy adabiyotdan foydalanish. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda badiiy adabiyotdan foydalanishga turli yosh guruhlari tashkil etilgan kitob burchagida ishlash, bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlarni sahnalashtirish, ya'ni qo'g'irchoq teatri, soya teatri (ko'lanka), stol teatri, diafilmlar namoyish etish, radio va teleeshittirishlar tashkil etish kiradi. Tarbiyachi mashg'ulotdan tashqari qulay vaqtda bolalarni kitob burchagidagi kitoblar bilan tanishtiradi, kitobdagi rasmlarni ko'rsatib, u haqida suhbat o'tkazadi, asarlarni o'qib yoki hikoya qilib beradi, mualliflar bilan tanishtiradi, bolalarga oldingi mashg'ulotlardan tanish bo'lgan, shuningdek, dasturga kiritilmagan asarlarni takror o'qib berish mumkin. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda tabiat haqidagi asarlarni, lirik she'rlarni, matal va qochirimlar, topishmoqlar, sanamalar va hokazolarni aytib berish bolalarning his - tuyg'ulariga katta ta'sir etadi. Kutubxonaga, kitob do'koniga sayohatlar tashkil etiladi. Yilning turli fasllarida tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirish jarayonida bahor, yoz, kuz, qish haqidagi she'rlar aytib beriladi, hikoyalar, ertaklar o'qib beriladi.

Shuningdek, mashg'ulotdan tashqari vaqtda bolalar uchun tarbiya vositasi bo'lgan materiallardan, topishmoqlardan keng foydalaniladi. Bolalarning tanish asarlar haqidagi bilimlarini tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan o'yinlarda mustahkamlash

mumkin. Masalan, tarbiyachi qo'g'irchoqlar uchun ertalik tashkil qilishni bolalarga taklif etadi. Bu ertalikda bolalar tanish ertaklarni qo'g'irchoqlarga so'zlab berishadi.

Biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy adabiyotlar orqali katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish jarayonlarida foydalanish uchun quyidagi metodlarni taklif etdik. Yuqoridagi usul va vositalardan foydalangan holda ularni tajriba sinovimizda qo'lladik.

- Mnemonik jadvallardan foydalanish;
- Flanelegraflardan foydalanish;
- Adabiy viktorinalar o'tkazish.

Mnemonik jadvalning mazmuni bu she'r syujetining asosiy bo'g'inlarini ajratib ko'rsatish orqali she'riy bandlarning tasviri, ertak qahramonlari, tabiat hodisalari, ba'zi harakatlar va boshqalarning grafik yoki qisman grafik tasviri bolalarga ketma-ket ko'rsatish orqali suratli jadval asosida she'rni yod oldirishdir. Asosiysi, shartli ravishda suratli jadval bolalar uchun tushunarli bo'lishi kerak. She'rlarni yod oldirish uchun mnemonik jadvallar ishlab chiqiladi. Ushbu rasmlarni yaratish uchun badiiy qobiliyat talab qilinmaydi, har qanday tarbiyachi tanlangan she'rga ob'ektlar va ob'ektlarning o'xshash ramziy tasvirlarini chizishi yoki kompyuterdan suratlarni chiqarish imkoniyatiga ega. Bu esa har bir tarbiyachiga faoliyati davomida bu usulni qo'llash imkoniyatini beradi

Flanelegraf faoliyat va o'yinlarni rivojlantirish uchun juda foydali qurilma hisoblanaadi. U maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv ko'rgazmali qurol sifatida qo'llaniladi. Odatda, flanelegraf mayin yuzasiga ega bo'lgan tekislikdan iborat bo'ladi. Tekis yuzaga ega bo'lgan flanelegrafda sahnalashtirilishi ko'zda tutilgan badiiy asar yoritiladi. Unga karton shakllaridan tayyorlangan badiiy asar qahramonlari va voqea elementlari yopishtiriladi va hikoya sahnalashtiriladi.

Adabiy viktorinalar o'tkazishdan asosiy maqsad, bolalarning badiiy asarlarga bo'lgan qiziqishlarini mustahkamlash, ilgari tanish bo'lgan badiiy asar janrlarini eslashga yordamlashish, bolalar nutqini mashqlantirish, esda saqlab qolgan parchalarni aytish, yangi so'zlardan foydalanishga o'rgatishdir. Adabiy viktorinalar o'rta va katta guruhlarda tashkil etiladi. Viktorinani musobaqa tarzida bir guruhni ikkita komandaga ajratish yoki ikkita bir xil guruhlar bilan (musobaqa uyushtirish) o'tkazish mumkin.

Katta guruh bolalari badiiy asarlar mazmunining ayrim xususiyatlarini, mazmunining ifodaligini chuqurroq tushunib olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish jarayonlarida turli usullar qo'llash va vazifalarni bajarish taqazo etiladi.

Har bir foydalanadigan usullarimiz bolalar nutqini ma'lum bir jihatini o'stirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish va ularda badiiy adabiyotlar foydalanish borasida chet ellik olimlardan G. L. Rozengart-Pupko, F.I.Fradkina, G.M.Lyamina, L.S.Vigotskiylarning fikrlari va ilmiy izlanishlaridan foydalanildi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan E.A.Flerina, O.I.Konina, A.M.Borodich, M.M.Alekseyeva, V.I.Yashina, A.G.Arushanova, V.Ashikova, G.N.Bavikina, M.M Tuleykina, L.D Korotkova kabi olimlarning bolalar nutqini rivojlantirish va o‘stirish to‘g‘risidagi ilmiy izlanishlari tadqiqot ishimiz uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Respublikamiz ilm ahllaridan F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, D.R.Babayeva, Q.Shodiyevalarning bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlaridan foydalanildi.


NATIJALAR

Biz taklif etgan metodlarimiz samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba ishlari olib bordik. MTT dan nazorat va tajriba guruhleri tanlab olib, dastavval har bir tarbiyalanuvchilari nutqini qay darajada ekanligini tahlil qilish uchun maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablaridagi nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasining nutq va til kichik sohasi talablari bo‘yicha tahlil qildik.

Tahlildan so‘ng nazorat guruhlarida faoliyatlar odatiy avvalgi holatida ya’ni tarbiyachi-pedagoglarning odatiy qo‘llaydigan metod va usullaridan foydalanilgan holatda olib borildi, tajriba guruhida esa biz taklif qilgan metodlar qo‘llanildi. Tajribadan so‘ng natijalarni qayta oldik va tahlil qildik.

1-jadval

Holat	Guruh	Nazorat	Tajriba
Tajribadan oldin		69%	68%
Tajribadan keyin		70.60%	83%



1-diagramma

MUHOKAMA

Olib boradigan bu ishlarimiz natijasida bolalarning nafaqat nutqini o‘stishga balki ularda kitobxonlikka qiziqishni uyg‘otish, ma’naviy yuksalishiga yo‘l ochib berish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz mumkin.

Adabiy asar tayyor lingvistik shakllarni, tasvirning og‘zaki xususiyatlarini, bola bilan ishlaydigan ta’riflarni beradi. Kichkina bola maktabgacha ham grammatik qoidalarni o‘zlashtirmasdan oq, badiiy so‘z yordamida tilning grammatik me‘yorlarini uning so‘z boyligi bilan birlikda amalda o‘zlashtiradi. Badiiy asarlar bolalarga atrof olamdagi barcha narsalarni ochib beradi. Tilning bitmas tuganmas boyligini ko‘rsatadi va ushbu boylıkdan kundalik muloqotda mustaqil ravishda foydalanishga o‘rgatadi. Og‘zaki ijodkorlik, nutqdagi aniqlik, mantiq va kommunikativlik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kitobdan bola ko‘plab yangi so‘zlarni, majoziy iboralarni o‘rganadi, uning nutqi hissiy va she‘riy lug‘at bilan boyitiladi. Adabiyot bolalarga o‘zlari eshitgan narsaga munosabatini taqqoslash, metafora va boshqa majoziy ifoda vositalaridan foydalangan holda ifoda etishga yordam beradi. Badiiy adabiyotni o‘qish va hikoya qilish metodikasi adabiy materialning mazmuniga va bolalarning yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA

Badiiy adabiyotlardan foydalanish holda nutq o‘stirish faoliyatlarini tashkil etishda turli xil metodlardan foydalanish qisqa vaqt ichida ish samaradorligi oshishi va natijalarning keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Eng asosiysi bolalarda faoliyatga nisbatan qiziqishning oshganini ko‘rishimiz mumkin.

Biz taklif etgan metodlar, ya’ni bolalarga badiiy adabiyot janrlaridan bir hisoblangan she‘rlarni yod oldirishda odatiy taktotlatish usulidan emas balki mnemonik jadvallardan foydalangan holatda she‘rlarni yod oldirishni qo‘llash, badiiy asar haqidagi tushunchalarini mustahkamlash, bolalar nutqini mashqlantirish, savol-javoblar orqali o‘ganilgan badiiy asarlarni takrorlash uchun adabiy viktorinalar o‘tkazish, doimiy mashg‘ulotlar jarayonida yoki bayram ertalıkları uchun sahnalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun flanelegraflardan foydalanib ertak yoki hikoyalarni sahnalashtirish bolalar uchun yangilik bo‘ldi. Ularda ushbu metodlarni katta qiziqish bilan bajarishga va badiiy asarlarni ixtiyoriy ravishda o‘zlashtirishlariga sabab bo‘ldi.

Bundan tashqari tarbiyachi-pedagoglarimiz ham faoliyatlari davomida badiiy adabiyotlardan foydalanishlari bolalar nutqini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega ekanligini bilib olishdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020 yildagi 802-son qarori 1-ilovasi
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi - T. 2022
3. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi davlat standarti - T. 2020
4. Qodirova F. Toshpo‘latova Sh. Va boshqalar. Maktabgacha pedagogika-2018 yil
5. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. T., ”ISTIQLOL”, 2016 y.
6. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T., Moliya, 2003.
7. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008
8. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. –T., 2008.
9. Shomaxmudova R.SH. Barmoqlar mashqi vq nutq o‘stirish. T.:, Lesson press.2018
10. Shomaxmudova R.SH. Talaffuzga o‘rgatish va nutq o‘stirish. Toshkent- «ILM ZIYO»-2013
11. Ushakova O. S. Gavrish N. V., “Biz maktabgacha yoshdagi bolalarni adabiyot bilan tanishtiramiz” Moskva Tcsfera, 2003 yil
12. Алексеева М.М., Яшина В.И. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: Учеб. пособие для студ. высш. и сред. пед. учеб. Заведений Издательский центр «Академия», 2000. - 363 с.